



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI**

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq– 2025

Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, II Tom. – Toshkent: «Zebo print», 2025. 305 b.

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Ushbu to'plamda Qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislar o'rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo'lishiga ishonch bildiraman..

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov

yetakchilarining oʻzaro kelishuvlari nafaqat Oʻzbekiston va Fransiya xalqlari, balki, butun Markaziy Osiyo va Yevropa oʻrtasidagi diplomatik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Fransiya_munosabatlari
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/05/fransiya/>
3. https://toshvil.uz/oz/o_zbekiston_fransiya_hamkorlik_rivojlanmoqda
4. <https://kun.uz/uz/56961613?q=%2F56961613>
5. https://president.uz/uz/lists/categories/229?menu_id=12

TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI (CHOCH VA BINKAT)

*Eralov Xasan Turdimat oʻgʻli,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-Bosqich talabasi*

Annotatsiya: : Bu maqola Toshkent vohasining qadimgi shaharlari — Choch (miloddan avvalgi IV asr — milodiy X asr) va Binkat (milodiy IX–XII asrlar) ning Buyuk Ipak yoʻli tizimidagi strategik, iqtisodiy va madaniy rolini tadqiq etadi. Maqolada quyidagi jihatlar yoritilgan: Chochdan topilgan tangalar, sopol idishlar, qalʼa devorlari xarobalari, Binkat yodgorliklari (masalan, shahar plani, suv taʼminoti tizimi). Shaharlarning asosiy savdo tovarlari: ipak, metall buyumlar, qimmatbaho toshlar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: :Toshkent vohasi, Choch, Binkat, qadimgi shaharlar, savdo markazlari, ipak svdosi , qadimgi tangalar, arxeologik meros.

Аннотация: В статье рассматривается стратегическая, экономическая и культурная роль древних городов Ташкентского оазиса — Чача (IV в. до н.э. — X в. н.э.) и Бинката (IX-XII вв. н.э.) в системе Великого Шелкового пути. В статье рассматриваются следующие аспекты: монеты, найденные в Чаче, керамика, руины крепостных стен, а также памятники Бинката (например, план города, система водоснабжения). Особое внимание уделено основным товарам, продаваемым в городах: шелку, изделиям из металла, драгоценным камням и сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: *Ташкентский оазис, Чоч, Бинкат, древние города, торговые центры, торговля шелком, старинные монеты, археологическое наследие.*

Annotation: *This article examines the strategic, economic, and cultural role of the ancient cities of the Tashkent oasis - Choch (4th century BC - 10th century AD) and Binkat (9th-12th centuries AD) in the system of the Great Silk Road. The article covers the following aspects: coins found in Choch, pottery, ruins of fortress walls, monuments of Binkat (e.g., city plan, water supply system). The main trade goods of the cities: silk, metal products, precious stones, agricultural products are covered.*

Keywords: *Tashkent oasis, Choch, Binkat, ancient cities, trade centers, silk trade, ancient coins, archaeological heritage.*

Binkat -Choch (Shosh)ning o'rta asrlardagi (IX-XII asrlar) poytaxti. Toshkentning eski shahar qismidagi binolar tagida qolib ketgan shahar xarobasi hisoblanadi (V.V.Bartold, M.Ye.Masson). 10-asr arab manbalariga ko'ra, Binkatning uzunligi va kengligi bir farsax (6–7 km.ga yaqin) bo'lgan va qo'rg'on (ko'handiz yoki ark), ichki shahar (shahriston yoki madina) va ikki rabod: ichki (rabodi doxil) va tashqi (rabodi xorij)dan tashkil topgan.

Choch geografik tushuncha sifatida ilk bor sosoniylar shohi Shopur I milodiy 262 yilda Erondagi zardushtiylik ibodatxonasida o'yib yozilgan bitigida tilga olingan.Bitikda Chochiston tog'lari Sosoniylarning sharqdagi chekka yerlari qatorida tilga olingan.Arxeologik ma'lumotlar xulosasiga ko'ra, bu o'lkalarning eng qadimgi poytaxti avvalda Toshkentdan 70 km janubdagi ulkan Qanqa shahri o'rnida joylashgan bo'lishi mumkin.Keyinchalik Toshkent shahri hududidagi suv tarmog'I Salor bo'yidagi Mingo'rikda asosiy diniy markaz atrofida ko'plab shaharlashgan manzilgohlar vujudga keldi.

Toshkentning uzoq o'tmishi va u qad ko'targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda juda xilma-xil tarzda uchraydi. Toshkent haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil.avv.II asr milodning IV asrlariga mansub Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Toshkent viloyati qadimda Yuni, Chjesi va Shi deb nomlangan. Toshkentning qadimgi nomlaridan biri «Choch» bo'lgan. Keyinchalik Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach, arab alifbosida «ch» xarfining yo'qligi bois, arabiy asarlarda u «Shosh» deb yuritilgan .Chunki, arab alifbosida «ch» xarfining yo'qligi bois, u «sh» bo'lib o'qiladi. Ilk o'rta asrlarda Toshkent «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash –Shosh», «Binkat» va «Tarkan» nomlari bilan yuritilgan.

Ark alohida devor bilan o'ralib, 2 darvozasi bo'lgan, biridan rabodga, ikkinchisidan shahristonga chiqilgan. Ark ichida hokim saroyi va qamoqxona joylashgan. Ark devoriga tashqaridan jome masjidi tutashgan.

Binkat darvozalari: Xamdayn raboti, Ohanin (Temir); Amir darvozasi; Farxon, Surkada, Karmonj (yoxud Karmabaj); Kuyi Sahl (Dasht ko'chasi); Roshdijoq; Ko'yi Xoqon, Qasri Dehqon. Tashqi rabodda, arab geograflarining ma'lumotlariga ko'ra, 7 ta darvoza bo'lgan: Farg'ad (Shar-qiy), Xoshkas (Sirdaryodagi Xos kechuvi), Sandijak (yoki Sakandijoq), Ohanin, Bokardijoq, Sakrak, Sag'robod (yoxud Darbi Faryad).

Toshkent vohasidan qadimgi Parak – Chirchiq va Ohangaron daryolari oqib o'tib, Sirdaryoga, ya'ni – Sayxun daryosiga borib quyiladi. Mazkur joy daryolar, serunum tuproqli yerlar tufayli vohaning ko'p joylarida ilk qishloqlar vujudga kelib, ular asta sekin, shaharlarga aylana borganlar. Bularning eng yiriklari Shoshtepa ilk shahar harobasi, Mingo'rikdagi qadimgi Toshkent, Oqtepa – ilk o'rta asr qasri va nihoyat, Binkat o'rta asrlardagi Toshkent shahridir. Shak-shubhasiz vohadagi hamma qadimgi va o'rta asr qishloq va shaharlarining aksariyati tabiiy yoki sun'iy suv manbalari yaqinida vujudga kelgan va rivoj topgan. Chunonchi Shoshtepa Jo'nariq bo'yida, Mingo'rik Solar bo'yida, Oqtepa qasri va nihoyat Binkat o'rta asrlardagi Toshkent [U istokov drevney kulturi Tashkenta. Tashkent: Fan. 1982. S. 91-129; 171-172] esa Parak-Chirchik daryosidan suv oluvchi Bo'zsuv anhorining Qaykovus kanalidan chiqarilgan tarmoq ariqlardan keladigan suv bilan ta'minlangan.

Ammo Binkat – o'rta asrlardagi Toshkent qal'asi va shahristoni esa yirik sug'orish tarmoqlaridan bir oz uzoqroq va balandlikda bo'lgan. Ayniqsa uning arki hozirgi Chorsu bozori hududida bo'lib, kamida bozorning yer sathidan 10-15 metr balandda joylashgan bo'lsa kerak. Somoniylar davrida Shosh va Usurshonada YAhyo binni Asad va undan keyin uning avlodlari hukmronlik qilganlar. Bu davrda dastavval Shoshning loyqa bosib, suvsizlikdan qurib qolgan sug'orish tarmoqlari qayta tiklangan. Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblarni yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. Shubhasiz, bu qishloqlarda, keyinchalik Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi.

Mil. av. 2—1-asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'ralingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi. Mil. 1—2-asrlarda suyakdan yasalgan yozuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasalib ishlatilgan.

15 smli bu suyak qalamning bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi o'chirgich tomoni esa qiyshiq ko'p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me'moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xatsavod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo'sag'asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini ola boshlaganini ko'rsatadi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi huddi shu davrdan boshlangan, ya'ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb baholashga imkon berdi.

Arab qo'shinlari Chochga ilk bor 713-yilda bostirib kelishgan. Tabariyning yozishicha, Chochni zabt etish uchun arablar 20 ming kishilik qo'shin tortgan. Shahar aholisi arablarga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatgan. Pekin, arablar ko'p o'tmay Chochni bosib olganlar va talon-toroj qilib katga o'lja bilan qaytganlar. Arab istilochilari tomonidan vayron etilgan shahar o'zini o'nglay olmadi. Faqat 9-asrga kelib, avvalgi o'rnidan 4–5 km shimoli-g'arbroqda, Bo'zsuv kanalidan chiqarilgan Kaykovus (Kolkohdiz) arig'i yonida yangitdan vujudga kedli va yana Chochning poytaxtiga aylanib, jadal taraqqiy eta boshladi. Bu yangi shahar arab manbalarida Binkat (uzoqdan ko'rinib turuvchi yoki quyi shahar) deb tilga olinadi. Bu nom 9—10-asrlarda zarb etilgan kumush va chaqa tangalarda Shosh va Madinat ash Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Bu shaharda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq tez rivoj topdi. Arablar dashtlik chorvador kabilalar hujumidan hosildor yerlarni muhofaza qilish maqsadida 8-asrning 70-yillarida Chirchiq vohasining shimoli-g'arbiy chegaralari bo'ylab Soyliq qishlog'i yonidagi tog'lardan to Sirdaryogacha devor qurdirganlar. Uning xarobalari Kampir devor nomida saqlanib qolgan.

O'rta asrlarda Binkat hududida boshqa kasb-hunarlar qatorida shishapazlik ham rivoj topgan. Binkat rabodlaridan turli linzalar va shisha idishlarning ajoyib namunalari topilgan. Shisha buyumlarning aksariyati yashil va ko'k, qisman sariq va qora shishadan tayyorlangan. Ular tiniqligi va ustki qismi yaltiroqligi bilan ajralib turadi. Barcha shisha buyumlarni vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: oshxona idishlari – kosacha, tovoq, stakan, qadah, ko'zacha, vazalar. Ulardan xonaning ichki qismini bezashda ham foydalanishgan; xo'jalik-ro'zg'or buyumlari – tuvak, sumak, deraza oynalari; atir-upa – dorixona idishlari, ular 2 guruhga – dorilar va atirlarni saqlovchi shisha idishlar va ularni tayyorlash uchun mo'ljallangan idishlar

(kichik kolbachalar); kimyoviy idishlar – kolbalar va alembik (shisha idish)lar. Shishapazlik Binkatda 10-asr oxiri – 11-asr oʻrtalarida ravnaq topgan.

Qishloqlar shahardan janubroqda va shimoli-sharq tomonda, Binkat orqali Soʻgʻddan Yettisuvga boradigan asosiy savdo yoʻli yoqasida koʻp uchraydi. Bu joylarning tub aholisi hunarmandchilikning muayyan bir sohasiga ixtisoslashgan. Binkatdagi shahar hayoti 10–11-asrlarda gullab-yashnagan. Bu davrda shahar Toshkent deb yuritila boshlagan. Arxeologik topilmalar shahar 12-asr oʻrtalarida inqirozga uchrab, mavqei pasaya boshlaganligidan dalolat beradi. 12-asr oxiri – 13-asrdagi inqirozdan soʻng shahar hayoti yana jonlanib, 14–15-asrlarda janub va sharqqa qarab kengaygan, uning sharqiy devori tashqarisida, Shayx Xovandi Tohur mozori oldida masjid va madrasa qurila boshlagan. 14–16-asrlarda shahar arki Binkatning janub tomoniga, Beshyogʻochning Qoratosh mahallasi oʻrnashgan hududga koʻchgan. Bu joydagi Eskioʻrda mahallasi 19-asrgacha mavjud boʻlgan. Ark kompleksi binolaridan biri – 15–16-asrlarga oid hammom xarobalari arxeologlar tomonidan tekshirilgan.

Ushturkat – Chochdagi qadimiy shaharlardan biri. Parak (Chirchiq) daryosi kechuvida, Buyuk ipak yoʻlida bunyod etilgan. Arab geograflari asarlarida (10-asr) Shuturket yirik, yaxshi mustahkamlangan «chiroyli timlari – yopiq bozorlari boʻlgan» shahar sifatida qayd etilgan. Choch davlatida u kattaligi jihatidan Binkat va Xarashkat (Qanqa)dan soʻng uchinchi mavqeyeni egallagan. Shuturket xarobalari Chirchiq daryosining oʻng sohilida, Toshkentdan 50 km gʻarbda Eski Toshkent nomi bilan saqlangan. 1900 yil V.V.Bartold uni Shuturket xarobasi ekanligini aniqlagan. G.V.Grigoryev (1934) tadqiq etgan. Rivoyatlarga koʻra bu joy Choch poytaxti va qadimgi bahodir Tosh qarorgohi boʻlgan. Shaharning bunyod etilgan aniq vaqti nomaʼlum. Hozirgi Shuturket xarobalari Chirchiq suvi yuvib ketishi oqibatida ancha vayron boʻlgan. Faqat 10–13-asr boshlariga oid oʻrta asr kvartallari saqlanib qolgan. Shuturketdan sirlangan sopol idishlar, koʻplab shisha buyumlar topilgan. Shaharda hayot 13-asr boshida moʻgʻullar istilosi natijasida barham topgan.

Xulosa: Toshkent vohasi—markaziy Osiyoning eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri boʻlib, uning tarixiy rivojida Choch va Binkat shaharlari alohida oʻrin tutadi. Bu shaharlar nafaqat mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida, balki Buyuk Ipak yoʻli tizimidagi strategik ahamiyati bilan ham ajralib turgan.

Choch (Chach) milodning ilk asrlarida voha markaziga aylangan va oʻzining yirik savdo-sotiq yoʻllari, qoʻpol istehkomlari, hunarmandchilik va

dehqonchilik rivoji bilan mashhur bo'lgan. Choch o'z davrida turli madaniyatlar chorrahasi vazifasini o'tagan, shu jumladan, sosoniylar, turk xoqonligi va arablar ta'siri ostida madaniy sintezning namunasini ko'rsatgan. Arxeologik topilmalar (sopol idishlar, tangalar, me'moriy qoldiqlar) bu shaharning boyligi va xalqaro aloqalarini tasdiqlaydi.

Binkat esa o'rta asrlarda Chach viloyatining poytaxti sifatida shakllangan va keyinchalik zamonaviy Toshkent shahrining asosiga aylangan. Uning geografik joylashuvi (Sirdaryo va Chatqol tog'lari oralig'i) uni savdo va mudofaa uchun ideal qilgan. Binkat turli sulolalar (somoniyalar, qoraxoniylar) hukmronligi davrida gullab-yashnagan, shahar me'morchiligi (masjidlar, qal'alar) va suv ta'minoti tizimlari bilan rivojlangan shahar madaniyatini namoyish etgan.

Ikkala shahar ham ko'plab istilolar va tabiiy ofatlar (zilzilalar)ga qaramay, o'zining tarixiy izlarini saqlab qolgan. Bugungi kunda ularning merosi nafaqat Toshkentning kelib chiqishini tushunishda, balki Markaziy Osiyoning madaniy xilma-xilligini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi. Arxeologik obidalarni saqlash va ularni turizm bilan bog'lash mintaqqa tarixini yangi avlodga yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, Choch va Binkat—Toshkent vohasining yorqin madaniy yodgorliklari bo'lib, ularning tarixiy tajribasi mintaqaning global jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini va uzoq asrlik mustahkamlik ramzini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Toshkent" ensiklopediyasi. 2009 yil
2. Boltayev B .Muzeyshunoslik
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "O'zbekiston Respublikasi hududidagi moddiy madaniy meros ob'ektlari ro'yxati to'g'risida qaror."(846-sonli, 2019-yil 4-oktabr).
4. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.
5. U istokov drevney kulturi Tashkenta. Tashkent: Fan. 1982. S 91-129; 171-172
6. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

7.Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O'QUVCHILARIGA RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

8.Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR

Ergasheva Charos

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning o'sishi, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik hamda madaniy va parlamentlararo muloqotlar ko'lami yoritiladi. Shu bilan birga, ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik istiqbollari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Vengriya, ikki tomonlama hamkorlik, diplomatik munosabatlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, strategik sheriklik, xalqaro tashkilotlar

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarildi. Vengriya O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda tan olgan va 1992-yil 3-martda diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Bu davrdan buyon ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xalqaro maydondagi hamkorlik izchil rivoj topmoqda. Ushbu maqolada ikki tomonlama aloqalarning mazmuni, natijalari va istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Siyosiy va diplomatik aloqalar

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi do'stona munosabatlar mustahkam asosga ega bo'lib, har ikki davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Siyosiy maslahatlashuvlar, yuqori darajadagi tashriflar hamkorlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilda Vengriyaga tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi.

AN'ANALARI	
D.Normurodov BO'STONLIQ TUMANI "SIJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA	93
D.Muhammadiyeva TOSHKENT VILOYATI HAQIDA	96
S.Ergasheva XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO	100
R.Do'smurodov CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI	103
Sh.Ashurova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI	107
D.Egamov QADIMGI TOSHKENT VOHASI	111
N.Iskandarova O'ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT	113
A.Egamurodov O'ZBEKISTON-FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI (1991-2024)	116
X.Eralov TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI (CHOCH VA BINKAT)	120
Ch.Ergasheva O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR	126
Sh.Erimbetova QADIMGI O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	129
A.Erkinov QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	132
S.Erlapasov XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI	135
S.Eshboboyev EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH	137
Y.Usmonova DAVAN DAVLATI: FARG'ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI	140
F.Eshimova SHARQIY TURK XOQONLIGI	143
R.Yolg'oshev SHOSHEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI	146
D.Eshmuhammedova CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI	149
M.Eshquvvatova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	154
S.Esonova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	157
L.Ochilodiyev AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI	160
M.Rixsiboyeva BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI	165
D.Gulyamov SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR	168
Z.Xurramova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI	176

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.